



UDK.632

**QASHQADARYO VILOYATI SHAROITIDA POLIZ QO'NG'IZI
(*EPILACHNA CHRYSOMELINA FABRICIUS*)
ZARARKUNANDASINING BIOEKOLOGIYASI**

Xolmurodov Abduxoliq Avazovich mustaqil tadqiqotchi
Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati sharoitida poliz ekinlarining asosiy zararkunandalaridan biri poliz qo'ng'izi (*Epilachna Chrysomelina* Fabricius) zararkunandasining tarqalishi va bioekologiyasi haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Poliz qo'ng'izi (*Epilachna Chrysomelina* Fabricius), bioekologiya, zararkunanda.

Аннотация. В данной статье представлена информация о распространении и биоэкологии бахчевого жука (*Epilachna Chrysomelina* Fabricius), одного из основных вредителей бахчевых культур в условиях Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Огородный жук (*Epilachna Chrysomelina* Fabricius), биоэкология, вредитель.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi qarorda keltirilgan qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish nazarda tutilgan vazifalarni bajarish



dolzarb hisoblanadi. Poliz ekinlari zararkunandalar va kasalliklarga juda ta'sirchan bo'lib, ularga qarshi zarur chora – tadbirlar ko'rilmagan taqdirda poliz ekinlari hosilining katta qismi yo'qotilishi yoki o'simlik butunlay hosil bermasligi ham mumkin.

Shu sababli poliz ekinlarida zararkunandalarning biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish va ularga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish dolzarb masala deb hisoblaymiz.

Poliz qo'ng'izi-(*Epilachna Chrysomelina* Fabricius) Markaziy Osiyo janubida bodring, qovoq va ayniqsa qovun barglarini va sapchalarini yeb, ancha ziyon keltiradi. Bu hasharotga qarshi o'z vaqtida kurash olib borilmasa, ayrim yillarda



1-rasm."Bog`i ko`kdala" fermer xo`jaligidagi tarvuz ekilgan maydonda poliz qo'ng'izining rivojlanishini monitoring qilish jarayoni 2025. y.

butun poliz hosilini yo'q qilib yuboradi, yosh o'simliklar esa nobud bo'ladi. Zararlangan tarvuz va qovunlar, ayniqsa qirqma qovun uzoq vaqt saqlash uchun yaroqsiz bo'lib qoladi chirib ketadi. Qo'ng'izi 7-8 mm kattalikda bo'lib, keng oval shaklida; tanasining past tomoni yassi, usti juda qabariq; rangi qizil-qo'ng'ir; qanotustliklarida 6 tadan qora dog'i bor. Poliz ekinlari ko'karib



O'rta Osiyo sharoitida poliz qo'ng'izi yiliga uch bo'g'in berib rivojlanadi. Bahorda qo'ng'izlarning uyqudan chiqish muddati cho'zilganligi sababli bo'g'inlar bir-biriga chalkashib, bir vaqtning o'zida zararkunandaning turli shakllarini uchratish mumkin bo'ladi. Uchinchi bo'g'in qo'ng'izlari qishki uyquga ketadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlarimiz davomida poliz qo'ng'izining katta zarari to'g'risida ilmiy manbalarda keltirilgan ko'plab ma'lumotlarga qaraganda V.V.Yaxontovning ma'lumotiga ko'ra Tojikistonda qovun va bodringning ertangi ekin hosili 70-75%, kechki ikkinchi ekinlar hosili esa 90-100% gacha ushbu zararkunanda tomonidan yo'qotiladi. Shunday qilib, poliz qo'ng'izining sonini boshqarishda entomofaglarning ahamiyati katta bo'lib, o'simlikda zararkunandaning miqdorini iqtisodiy xavflilik chegara sonidan past holatda ushlab turishi, hosilni pestitsidlardan ishlatmasdan ekologik toza tarvuz yetishtirish imkonini beradi. Zararkunanalarga qarshi biologik kurash choralarini yanada chuqurlashtirish, yangi entomofag turlarini topish va ularni qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. S.A.Murodov-Umumiy entomologiya kursi "Mehnat" nashriyoti Toshkent 2003.
3. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009.
4. Мирзалиева Х.Р. Биологический метод борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. - Ташкент: Матбуот, 1986. - 54с.



5. Arslonov M.T., Yusupov A.X., B.A.Sulaymonov. O'simliklarni biologik himoya qilish. - Toshkent: "Ilm ziyo", - 2003.
6. Sh.T. Xo'jaev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari.Toshkent. – 2019.